

## SHAXSIY TARKIB BILAN AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIK TADBIRLARINING TASHKIL ETILISHI VA AHAMIYATI

To‘raqulov Oxunjon Mamajon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada harbiy jamoalarda shaxsiy tarkib bilan axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning tashkil etilishi va uning ahamiyati tahlil etib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** harbiy jamoa, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, psixologik ishlar, deviant xuqlatvor, eksperiment uslub, kuzatish uslubi, perspektiv shakllar, ekstremal vaziyat.

**Аннотация:** в данной статье анализируется организация и значение нравственно-духовной подготовки личного состава в воинских частях.

**Ключевые слова:** военный коллектив, морально-духовная подготовка, психологическая работа, девиантное поведение, экспериментальный метод, метод наблюдения, перспективные формы, экстремальная ситуация.

**Abstract:** this article analyzes the organization and importance of moral and spiritual training of personnel in military units.

**Key words:** military team, moral and spiritual training, psychological work, deviant behavior, experimental method, observation method, promising forms, extreme situation.

“Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta’minlangan bo‘lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas’uliyat hissining yo‘qligi yoki loqaydlik tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin”.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev,

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti,

Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni.

Harbiy jamoalar bilan axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish quyidagilarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

zamonaviy sharoitda shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi masalalarini tashkillashtirish, o‘tkazish va musatahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlarini va boshqaruv hujjatlarini doimo o‘rganish;

jangovar va ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlarning rejalashtirish va o‘kazishda shaxsiy tarkibda kerak bo‘lgan sifatlarni takomillashtirish uchun zarur shakl va usullardan foydalanish;

ofitserlar va serjantlar tarkibi bilan axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazishda sifatli tashkillashtirish va shaxsan ishtirot etishlarini ta’minalash;

qo‘silmalar va harbiy qismlarning axloqiy-ruhiy tayyorlashda o‘quv-moddiy bazalarning doimiy takomillashtirib borilishi;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlik vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun shaxsiy tarkibni safarbar qilishni sifatli tashkillashtirish va o'tkazish;

shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorlashda zamonaviy va perspektiv shakllar va uslublarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish ishlarini boshqarish;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlik sifatini pasayishi oldini olish uchun jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazishda soddalashtirish va yengilliklar yaratishga yo'l qo'ymaslik, ta'sirli nazorat o'rnatish va qarshi kurash olib borish.

Barcha toifadagi komandir va boshliqlar o'zlariga biriktirilgan bo'linmalar va harbiy qismlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish va boshqarishga javob beradilar. Belgilangan vazifalarga erishish uchun komandir jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni, tarbiyaviy va ommaviy-sport ishlarini va qo'shilma va harbiy qismlardagi kundalik xizmat faoliyatlarni o'z bo'ysunuviga olish kerak.

Mas'ul mansabdar shaxslar rejalashtirishning birdamligi, javobgar mansabdar shaxslarning tadbirlarni o'tkazishdagi hamkorligi va kelishilganligini ta'minlaydi. Shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holati asosida qilingan xulosalar uni sog'lomlashtirish bo'yicha takliflar kiritadi va amalga oshirilishida ishtirok etadi.

Tibbiy xizmat xodimlari, komandirlar va tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi vakillari bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilarning jismoniy va psixologik salomatliklarini saqlash maqsadida qulay sharoitlar yaratish, psixologik zo'riqishlarni, harbiy xizmatchilarning asabiy-psixologik holatini o'zgaruvchanligini va psixologik kasalliklarga chalinishini oldini olish maqsadida tadbirlar o'tkazadilar.

Mas'ul shaxslarning hamkorlik mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

muvoifiqlashtirilgan faoliyatning yo'nalishini belgilash, hamkorlikdagi rejalashtirish, axborotlar almashuvi va hamkorlik;

eng ahamiyatli uchastkalarda kuchlarni muvoifiqlashtirish;

kuch va vositalarni joylashtirish, saralash, bajaruvchilar bilan yo'riqnomalar o'tkazish;

hamkorlikda ishslashning usul va shakllarini shuningdek yo'llarini tanlash;

nazorat, vaqt-vaqt bilan xulosa qilish, faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

kerak axborotlarni yig'ish va shu tayyorgarlikni o'tkazish uchun xulosa ishlab chiqish, vazifalarni rejalashtirish va belgilash, o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbir ustidan nazorat qilish, o'tkazilayotgan ishlarning samarasiga baho berish va yordam ko'rsatish.

Yuqori raxbariyat tarkibi hamda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi vakillarida harbiy jamoa psixologiyasi va ayrim harbiy xizmatchilarning psixologik holati to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi, shaxsiy tarkib bilan o'tkaziladigan axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni yuqori saviyada tashkillashtirilishi va o'tkazilishini ta'minlaydi.

Olingen axborotlarning tahlili asosida qaror qabul qilinadi, shu asosda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning maqsadi, vazifalari, yo'llari, usullari va unga erishish vositalari, mas'ul shaxslar, tadbirning o'tkazilishi uchun javobgar shaxslar va uni o'tkazish muddati belgilaniladi.

Ushbu axborotlarni yig'ishda eng qulay bo'lgan usullar quyidagilar: kuzatish, suhbat, tajriba, faoliyat natijalarining tahlili, mustaqil tavsiflarni umumlashtirish, hujjatlarni o'qib o'rganish, psixologik tahlil.

Kuzatish harbiy xizmatchining yurish-turishi, har-xil bosqichlarda xizmat-jangovar vazifani bajarishga tayyorgarlik ko'rishdagi, vazifalarni bajarish davrida va bajargandan so'nggi psixologik holatini aniqlashda yordam beradi. Ushbu metod shaxsiy kuzatuv natijasida aniqlangan axborotlarni olishga yordam beradi. shuning uchun harbiy xizmatchilarga psixologik tahlil qo'yilayotganda ularni psixologik jihatdan o'rganish hisobotlari hisobga olinadi.

Imkon boricha hisobot, xizmat-jangovar vazifani bajarilgandan so'ng tuzilishi kerak, sababi keyingi qisqa vaqt ichida harbiy xizmatchi o'zi uchun qulay bo'lgan ma'lumotlar to'g'risida izoh berishni va haqiqatga to'g'ri kelmaydigan hodisalarni yoritishni boshlaydi.

Harbiy xizmatchilar bilan suhbat qilish orqali quyidagilar aniqlanadi: psixologik holati, javobgarlik darajasi, harbiy xizmatiga bo'lgan munosabat, o'zining qay darajada tayyor ekanligiga tanqidiy bahosi darajasi, harbiy jamoaning o'zaro tushunish darajasi, xizmat-jangovar vazifalarga tayyorgarlik ko'rish va uni bajarishdagi psixologik qiyinchiliklar, oilada va xizmatida yuz bergen ziddiyatlarning uning psixologik holatiga ta'siri, psixologik tayyorgarlik tadbirlarining samarasini to'g'risida fikrlari.

Eksperiment uslubini qo'llab, murakkab vaziyatlarni trenajer apparatlar yordamida modellashtirilsa, harbiy xizmatchining fe'l-atvori, xarakteri, psixologik holati, hissiy-irodaviy darajasining mustahkamligi, vaziyatni baholashdagi tezligi va aniqligi, qaror qabul qilishdagi tezkorligi, harbiy xizmatchining xotirasi imkoniyatlari, uning tashabbuskorligi, matonatligi, sabotliligi aniqlanadi.

Ushbu uslub yordamida yana axloqiy-ruhiy tayyorgarligining samarasini baholanadi. Eksperimentni xizmat-jangovar vazifalarni bajarish vaqtida va trenajerlarda o'quv komandalar bilan o'tkazish tavsisiya etiladi.

Harbiy xizmatchilarning o'rganish uslubi natijasi, ularning o'quv-jangovar vazifalarni bajarish bosqichlarida berilgan vazifalarni aniq va aql bilan bajarishlari, shuningdek harakat qilishlarini ko'rsatadi. Ushbu vositalarning obyektiv nazorat qilinganligining hulosasi quyidagilar aniqlaydi: guruh, ekipajning o'quv-jangovar vazifalarni bajarishga tayyorgarligi darajasi, o'quv-jangovar vazifalarni bajarish jarayonidagi fe'l-atvori va psixologik holatining xarakteri, o'zaro tushunish darajasi va harbiy jamoa ichidagi o'zaro munosabat xarakteri.

Hujjatlarni o'rganish natijasida quyidagilar (shaxsiy jild, har xil tavsifnomalar va boshqalar) aniqlanadi: shaxsiy tarkibning o'quv-jangovar vazifalarga tayyorgarligi

darajasi, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik jarayonida hisobga olishni talab etuvchi shaxsiy-psixologik fazilatlari, harbiy xizmatchilarning ayrim sifatlarini mustahkamlash maqsadida bajarilgan tadbirlar davomida yanglish yoki xato qilib qo'yish xarakteri.

O'quv-jangovar vazifalarni bajarishning psixologik tahlili alohida o'rinni tutadi. U umumiy tahlilning negizi hisoblanadi. Uni o'tkazish jarayonida quyidagi sxemaga yondashish kerak bo'ladi:

harbiy xizmatchining psixofiziologik holatini aslini aniqlash;

uning shaxsiy-psixologik xususiyatlarini tushunish, oydinlashtirish;

harbiy xizmatchi xato harakatlar sodir etganda uni psixologiyasini belgilash;

bajarilayotgan o'quv-jangovar vazifalar va uni ayrim bosqichlarining psixologik xususiyatlarini inobatga olish;

yo'l qo'yilgan xatolarning psixologik sabablarini aniqlash;

harbiy xizmatchining psixologik jarohati sabablarini aniqlash;

profilaktika tadbirlarini belgilash.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish vaqtida eng asosiy va murakkab jarayon bu rejalashtirishdir. Rejalashtirishdagi aniqlik va ravshanlik, shuningdek bir maqsadni ko'zlash axloqiy-ruhiy tayyorgarlik subyektlarining asosiy ish yo'nalishini belgilaydi, harakatlarining ketma-ketliligi va izchillagini ta'minlaydi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mustaqil tayyorgarlik turi hisoblanmaydi, qo'shnlarning umumiy tayyorgarlik elementi turi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu tayyorgarlikning barcha tadbirlari qo'shnlar tayyorgarlik tizimining umumiy harakatlarida rejalashtiriladi va o'tkaziladi, region va jahonda yuzaga kelgan harbiy-siyosiy vaziyat sharoitida amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni rejalashtirish jangovar tayyorgarlik va tavsiflarni organlari bilan birgalikda jangovar tayyorgarlik va tarbiyaviy ishlarni tadbirlari bilan bir kompleksda amalga oshiriladi. Sababi harbiy xizmatchilarni o'qitish va tarbiyalash bir-biri bilan chambarchas bog'liq va aloqador.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi, tarbiyaviy ishlarni tadbirlari tizimida shaxsiy tarkib bilan ishslash organlari bilan birgalikda barcha toifadagi harbiy xizmatchilarni qamrab olgan holda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni rejalashtirishda quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim: harbiy qism va bo'linmalar shaxsiy tarkiblarining harakatlanishida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik vazifalarini belgilash;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning samarali usullarini tanlash va ularni turli mashg'ulotlar va tadbirlarga kiritish;

axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning qo'shimcha tadbirlarini belgilash.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik vazifalarini bajarish rejalarini amalga oshirish uchun javobgar shaxslarni safarbar qilish kerak bo'ladi. Ularga maqsadlar va harakatlanish

turlari haqida ma'lumot beriladi. Ushbu vazifa uchun javobgar shaxslarning faol harakatlanishi axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning ijobiliy tajribalarini tarqalishi va umumlashishiga xizmat qiladi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni sifatli tashkillashtirish va o'tkazish uchun harbiy qismlarda muntazam ravishda o'quv moddiy bazalar yaratiladi va takomillashtiriladi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

birinchi guruh – haqiqiy va amaliyotdagi vositalar: o'quv markazlari, dala o'quv maydonlari, o'quv-jangovar texnikalar va qurollar, har xil turdagи asbob-uskunalar;

ikkinchi guruh – jangovar vaziyatlarga yaqinlashtiruvchi maxsus yaratilgan vositalari: kompyuter trenajerlari, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik sinflari, jangovar harakatlarning turli elementlarini o'rghanish va o'tkazishga mo'ljallangan maydonchalar, psixologik zo'riqishlardan ozod bo'lish xonalari, psixologik mustahkam bo'lish uchun maxsus yaratilgan yo'lakchalar va h.k.

Amaliyotdagi vositalar bosh rolni o'ynaydi. Sababi faqat jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari davomida shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy va jangovar sifatlari jadallahadi, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari natijasiga ko'ra harbiy xizmatchilar o'zlariga kerak bo'ladigan sifatlarni takomillashtiradi.

Maxsus yaratilgan vositalar tinchlik va jangovar vaziyatlar jarayonida, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari yoki o'quv-jangovar vazifalarini bajarish vaqtida harbiy xizmatchi psixologiyasini ekstremal vaziyatlarga asta sekinlik bilan duch kelishini ta'minlaydi.

Psixologik zo'riqishlardan ozod etish xonalari shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari va o'quv-jangovar vazifalar jarayonida olgan hissiy zo'riqishlaridan ozod qilish, navbatdagi o'quv-jangovar vazifalarini sifatli bajarishlarini ta'minlash maqsadida psixologik holatlarini tiklash uchun mo'ljallangan.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik moddiy-texnik bazasi qo'shilmalar, harbiy qismlar va bo'linmalarining o'quv-uslubiy qo'llanma va tavsiyalari, kompyuter, audio va videotexnika, psixologik tashxis apparatlari va boshqa moddiy vositalarlarda ko'rsatilgan talablarini qondirishi zarur.

Xulosa o'rnida ta'kidlash zarurki, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tadbirlarining natijasini ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydi, yagona obrazli shaklda namoyon bo'lmaydi. Bu natijadorlik harbiy xizmatchi shaxsining onggida, tafakkurida, oldinda turgan vazifa va topshiriqlarga ichki sodiqlik va fidoiyligida, insoniy resurslarning to'laligicha safarbar etishida mujassam bo'ladi. Mazkur natijadorlik har bir mansabdor shaxs va boshliq uchun bugungi kunning eng muhim bo'lgan dolzarb talabi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagи “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3898-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 08.08.2018 y. 07/18/3898/1622-son.
2. O'.Urunov. Kundalik harbiy xizmat faoliyatning psixologik xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi. O'quv qo'llanma. 2015. B. 5-6.
3. J.Rahimov. Amir Temur. Adolat va qudrat timsoli. Ilmiy-tarixiy kitob. T.: 2017. B. 24-98.
4. M.Abilov. Buyuk ajdodlardan meros muqaddas Vatan. T.: 2012. Harbiy nashriyot. 109 b.
5. A.Ahmedov. Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati. “SHarq” NMAK. T.: 2004.